

6. Kurbonov, A. B., & Shoxo'jaeva, Z. S. (2019). Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. *International Journal of Engineering and Advanced Technology*, 8(6), 5123-5126.

7. Shoxo'jayeva, Z. S., & Norqobilov, M. (2020). Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 25-28).

INGLIZ XALQ MAQOLLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARINI ANGLASH

Xasan G'afforov¹

¹*ISFT instituti Samarqand filiali Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası v.b., dotsent Phd*

qurgoshin19@gmail.com

Mohinur Asqarova²

¹*ISFT instituti Samarqand filiali Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi I-kurs talabasi*

asqarovam937@gmail.com

Annotatsiya: *Bu maqolada tildan tilga o'tib kelayotgan lingvomadaniy xususiyatlar ko'rsatilgan. Xalq og'zaki ijodida bu janr muhim rol egallaydi. Maqolda qofiya, ta'sirchan mazmun borligi uchun butun dunyo so'zlarida qo'llaydi. Buyuk ingliz olimlari ham o'z fikrlarida maqol qanchalik hayotimizda muhim rol o'ynashini aytib o'tgan. Nafaqat ingliz olimlari, balki o'zbek shoir va yozuvchilarining asarlarida ham yaqqol ko'rsatilganligi yoritilib berilgan. Maqollar orqali xorijliklar bilan do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlanadi.*

Kalit so'zlari: *maqol, olimlar fikri, ko'zgu, alliteratsiya, lingvistika, lingvomadaniy*

Аннотация: *В данной статье показаны лингвокультурные особенности, переходящие из одного языка в другой. Этот жанр играет важную роль в устном творчестве народа. Поскольку пословица имеет рифму и впечатляющее содержание, ее использует в словах весь мир. Великие английские учёные также отмечали в своих мнениях, какую важную роль играют пословицы в нашей жизни. Это ясно видно в трудах не только английских учёных, но и узбекских поэтов и писателей. Укрепляем дружбу с иностранцами через пословицы.*

Ключевые слова: *пословица, мнение учёных, зеркало, аллитерация, лингвистика, лингвистический и культурный*

Annonation: *This article shows the linguistic and cultural features that pass from one language to another. This genre plays an important role in the oral creativity of the people. Because the proverb has a rhyme and an impressive content, it is used in the words of the whole world. The great English scholars have also mentioned in their opinions how important a role proverbs play in our lives. We strengthen friendship with foreigners through proverbs.*

Key words: *proverb, the opinion of scientists, mirror, alliteration, linguistics, linguistic culture*

Kirish

Maqol bu - bir xalqning og‘zaki ijodi, madaniyati va urf odatlaridan darak beruvchi hikmatli so‘zdir. Jones fikriga ko‘ra maqolga ta’rif berishda haqiqatdan ham qiyinchilik va imkonsizlik mavjud va u maqolga “an expression we recognize as proverbial” ya’ni «u maqol sifatida bilgan iboramizdir» Maqollar semantik va struktur jihatdan to‘la tugallangan matn sifatida matn lingvistikasining muhim o‘rganilayotgan ob’ekti hisoblanadi. Grammatik jihatdan maqollar muayyan sintaktik birlik hisoblangan gaplardir. Grammatiklar tomonidan sintaktik birlik sifatida o‘rganilib kelinayotgan muhim ob’ekt bo‘lib kelmoqda. Xalq maqollari ularning tilshunoslikda va adabiyotda tutgan o‘rni [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz maqollarining lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot ishida maqollarning strukturaviy, stilistik va semantik xususiyatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan tizimli va ko‘p qirrali uslubiy asos qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan jumladan: tadqiqot loyihasi, ma’lumotlar yig‘ish, analitik tahlil, lingvistik tahlil, fonologik tahlil (qofiya, alliteratsiya va ritm kabi tovush naqshlarini tekshirish), morfologik tahlil (noyob so‘z shakllarini, jumladan, arxaik va idiomatik iboralarni aniqlash, sintaktik tahlil (Parallellik, qisqalik va inversiya kabi strukturaviy elementlarni o‘rganish), semantik tahlil (majoziy til, metafora va ma’noning madaniy oqibatlarini tahlil qilish) kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz maqollarini o‘rganish keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo‘lib, ularning til, madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Olimlar maqollarning umumiy hikmatni qamrab olishi, axloqiy saboqlarni etkazishi va madaniy qadriyatlarni o‘ziga xos til shakllari orqali aks ettirishini o‘rganib chiqdilar.

Maqollarning lingvistik xususiyatlari bir qator tilshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotining asosiy yo‘nalishi maqollarning lingvistik xususiyatlariga qaratilgan Mieder 2004-yilda qofiya, alliteratsiya va parallelizm kabi qurilmalardan foydalangan holda, maqollar oson esda qolarli bo‘lishi uchun qanday tuzilganligini tadqiq etadi. Bu xususiyatlar maqollarni nutqda va matnda alohida ajratib turadi, ularning ritorik ta’sirini kuchaytiradi. Crystal 2008-yilda maqollarni oson eslab qolish va avloddan-avlodga o‘tishda, ayniqsa og‘zaki ijodda tovush naqshlarining rolini tadqiq etadi. Bundan tashqari, Norrik 1985-yilda maqollarda elliptik va ixcham konstruksiyalardan foydalanishni muhokama qiladi, bu ularning ma’noli va ta’sirchan tabiatiga yordam beradi. Maqollar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri fikrga kirish uchun keraksiz tafsilotlarni o‘tkazib yuboradi, bu ularni muloqotda ham iqtisodiy, ham kuchli qiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Biz maqollardan badiiy ijod va falsafada ko‘proq foydalanamiz. Har bir maqol inson ongiga jozibasi, nafosat-u fusnkorligi bilan inson qalbiga ko‘zgu tutadi. Bu ko‘zgu yosh-u qarini estetikasini go‘zallashtiradi, axloqini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham maqollar g‘oyatda keng tarqalgan bo‘lib, asrlar davomida jonli so‘zlashuv va o‘zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik ilmiy-amaliy adabiyotda doimiy ravishda qo‘llanilib kelgan va qo‘llanmoqda. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta’minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom va boshqa o‘nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba’zan aynan, ba’zan o‘zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz.

Ingliz va o‘zbek tilidagi maqollar:

1. There’s no place like home	Uydan yaxshiroq joy yo‘q
2. The early bird catches the worm	Muvaffaqiyatga erishish uchun erta turish kerak
3. Never look a gift horse in the mouth	Kimdir sizga biror sovg‘a berganida, ortiqcha savol bermang
4. Actions speak louder than words	Harakatlar so‘zlardan ko‘ra balandroq gapiradi.
5. Too many cooks spoil the broth	Oshpazlar ko‘p bo‘lsa bulyon buziladi

Barcha maqollarni tahlil qilish orqali isbotlayman: Maqollar-insonning soʻzlarini goʻzal tarzda ifoda etuvchi, qadim tarixdan biz yosh avlodlarga yetib kelgan nutq bezagidir. Maqollarni oʻrganar ekanmiz, buning zahirida insoniyat, vatan, ona, doʻst kabi fazilatlar aks ettiriladi. Har bir mamlakatning qondan qonga singib kelgan boy oʻtmishi kelajak uchun koʻzgudir. Yosh avlod maqollarni oʻrganar ekan, uning ongi bevosita rivojlanadi. Uning tafakkurida oʻz tiliga boʻlgan mehr yanada kuchayadi. Yuqoridagi soʻzimni isbotlash uchun misollar bilan sizlarga tushuntirib beraman:

“The early bird catches the worm”. Muvaffaqiyatga erishish uchun erta turish kerak. Bu maqolning maʼnosi-agar inson erta tursa, katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Maʼlumotlarga qaraganda, muvaffaqiyatga erishgan insonlarning koʻpi, ertalab soat 4:00 da uygʻonib ishlarini bajarar ekan. Demak, muvaffiqiyatga erishmoqchi boʻlsangiz, oʻzgarishni oʻzingizdan boshlang.

Asosan, maqollar inson ongiga qofiyadosh soʻzlar ila kirib boradi. Maqol-tugallangan soʻzlar bilan, boʻyoqdorligi bilan ajralib turadi. Bir inson boshqa bir insonga oʻz fikrini bildirar ekan, soʻzlarini shu insonga ibrat berish uchun turli xil maqollardan foydalanadi. Maqollarga koʻrk berishimiz uchun biz alliteratsiyani maqollarimizda faol qoʻllashimiz lozim. Bu soʻzning maʼnosi nima?- degan savol bevosita aytiladi. Alliteratsiya - oʻxshash undosh tovushlarning takror qoʻllanilish. Masalan, *Where there is a will, there is a way*. Alliteratsiya «will» va «way» soʻzlarida mavjud.

Maqolni qofiyadosh soʻzlar bilan jozibadorligini taʼminlash uchun “ritm” dan foydalanamiz. Ritm yaʼni qofiyadosh soʻzlarning qoʻllanilishi. Masalan, **“Easy come, easy go”** Oson kelgan narsa oson ketadi. Bunda *come* bilan *go* qofiyadosh. **“There’s no such thing as a free lunch”**. Bepul mahsulotlar har doim yashirin narxga ega. Qofiyaga ega boʻlgan soʻzlar-such bilan lunch.

Ingliz maqollarining tuzilishi. “Fair” ning taʼkidlashiga koʻra, Ingliz maqollarining ayrimlari alohida tuzilish formulasiga ega. Koʻpchilik maqollarga xos boʻlgan quyidagi formulalarni ishlab chiqdi [2]. *One X is worth a lot of Y*. Yaʼni (X) narsa koʻp (Y) qiymatga ega. -*One picture is worth ten thousands words* -*One volunteer is worth many pressed men*. Oʻzbek tilida ham xuddi shunga oʻxshash tuzilishga ega maqollar uchrab turadi. 1. “*Bilagi zoʻr-birni, Bilimi zoʻr-mingni yiqitar*” [3]. Qayerda X boʻlsa, Y oʻsha yerda -*Where there is a will, there is a way* -*Where there is smoke, there is fire*. Oʻzbek tilida esa: -*Nur borki, soya bor* [4]. *Once X always Y* yaʼni Bir marta X har doim

-*Once a lady, always a lady*. -*Once a thief, always a thief* -*Once a copper, always a copper*. -*Once a priest, always a priest* Oʻzbek tilida “*Boʻrining har doim ogʻzi qon*” yaʼni boʻri yesayam, yemasayam har doim ogʻzi qon, yegan

degan gumonda bo‘lishi, bir marta o‘g‘rilik qilgan odam ham har doim o‘g‘rilikda gumonda bo‘ladi. Like X Like Y ya’ni X ni Yga o‘xshatish haqida.

-Like father, like son. O‘zbek tilida esa ma’nosi xuddi shunday lekin tuzulishida “o‘xshamoq” ya’ni “like” so‘zi qatnashmagan maqollar uchraydi: “Ot o‘rmini toy bosar”, “Onasini ko‘rib qizini ol”

X is Y; ya’ni X bu Y ga teng Time is money. Vaqt bu pul; Sog‘lik-eng katta boylik . No X without Y ya’ni X yo‘q bo‘lsa Y ham bo‘lmaydi. No rose without thorn. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas [5].

Biz nafaqat ingliz tilida balkim, rus tilida ham maqollarni o‘rganishimiz mumkin. Bu bizning tafakkur dunyoyimizni kengaytiruvchi omillardan biridir. Jumladan, maqollarni hayotimizda qo‘llar ekamiz, so‘zimiz ravon, nutqimiz keng bo‘la boshlaydi. Maqollarni inglizcha, ruscha, o‘zbekchada talqin qilib ko‘ramiz.

You cannot sell the cow and drink the milk	Один пирог два раза не съешь	Qaysi butaga o‘t tushsa, o‘sha buta kuyar
When I lend I am a friend, when I ask I am a foe	Если хочешь врага нажить, так дай в долг денег!	Qarz bersang, do‘st ko‘payar, Talab qilsang — dushman
A friend to everybody is a friend to nobody	Друзей-то много, да друга нет.	Ko‘pni sevgan birni sevmas
Time works wonders	Время разум дает.	Vaqt tog‘ni yemirar, Suv toshni kemirar
A fool and his money are soon parted	Дал дураку, яичко; что покатило, то и разбил	Ahmoqniki — og‘zida, Podshohniki — g‘aznada

Maqollarni har birini tahlil qilishni boshlaymiz. Qaysi butaga o‘t tushsa, o‘sha buta kuyar. Buning ma’nosi, hamma odam o‘zining qilgan ishi uchun javob beradi. “Kemaga tushganning joni bir “ maqoli bilan ma’nosi sinonim. “ Qarz bersang, do‘st ko‘payar, Talab qilsang- dushman” bunda cho‘ntakda pul bo‘lsa atrofda do‘stlar ko‘payadi. Agar bergan pulingizni qaytarib olmoqchi bo‘lsangiz, u inson sizga dushman bo‘ladi qoladi. “ Ko‘pni sevgan birni sevmas” inson qancha ko‘p odamni sevsa, boshqa odamga ko‘ngil qo‘ya olmaydi. “Vaqt tog‘ni yemirar, Suv toshni kemirar” vaqtni qadriga yetishishimizni, har bir soniya biz

uchun muhimligini ta’kidlab o’tilgan. “ Ahmoqniki - og’zida, Podshohniki-g’aznada “ ahmoq faqat og’zida gapiradi-yu, aqlini ishlatmaydi. Ammo, podshoh barcha aqlini o’z g’aznasida saqlaydi.

Lend your money and lose your friend	В долг давать - дружбу терять	Qarz-muhabbatning qaychisi
Drink in somethink with one's mother's milk	Нет роженного, не дашь и ученого	Ona suti bilan kirmagan tana suti bilan kirmas
Fools will be fools	Пьяный проспится, а дурак никогда	Ahmoq otdan tushsa ham, Egardan tushmas
A bad workman quarrels his tools.	Плохой плясун всегда музыканта хаает	O’z olmagan otga uzangi bahona
The whirligig of time	Превратности судьбы	Zamonaning zindoni ham, xandoni ham bor
God help the poor, for the rich can help themselves	У богатого черт детей качает	Boyning ko’zi nonda, Kambag’alniki -iymonda
Youth will serve	Молодой на службу, старый на совет	Yosh kelsa — ishga, Qari kelsa — oshga
He that has a wife has a master	Муж - голова, жена - шея	Xotin - erning vaziri

Bu maqollarda oila, adolat, tarbiyaga chaqiruvchi bir qancha vositalar mavjud. 7 yoshdan 70 yoshgacha insonning ongiga bevosita ta’sir qiladi. Qay millatda yashamaylik, maqolar donolikka, pand- nasihatga chorlayveradi.

Xulosa. Ingliz maqollarini o’rganish ularning ham til, ham madaniy hodisa sifatida ko’p qirraliligini ochib beradi. Maqollar qisqalik, qofiya, parallellik kabi o’ziga xos tuzilish xususiyatlari bilan muloqotda samarali vosita bo’lib xizmat qiladi, ularni esda qolarli qiladi va avlodlarga oson o’tadi. Ularning metafora va simbolizmdan foydalanishi murakkab g’oyalar va ijtimoiy qadriyatlarni ixcham

shaklda qamrab olish imkonini beradi, ularni keng omma uchun ochiq va mazmunli qiladi. Bundan tashqari, maqollar o‘zlari kelib chiqqan jamoalarning madaniy me’yorlari, axloqiy qoidalari va ijtimoiy umidlarini aks ettiradi, ko‘pincha xatti-harakatlar uchun qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi va jamoaviy donolikni mustahkamlaydi.

Ingliz va o‘zbek xalq maqollari inson so‘z boyligini yanada rivojlantiruvchi omillar hisoblanadi. Maqollarni qancha so‘zlarimizda qo‘llar ekanmiz, nutqimiz va tilimiz barqarorlashib boraveradi. Maqollar o‘zining pragmatik vazifalari orqali tilning ijtimoiy masalalarni sharhlash, maslahat berish va idroklarga ta’sir qilish usullari haqida qimmatli fikrlar beradi. Maqollarning moslashuvchanligi, ularning asosiy xabarlarini saqlab qolgan holda vaqt o‘tishi bilan rivojlanishiga imkon beradi, ularning zamonaviy jamiyatda doimiy dolzarbligini ta’kidlaydi. Ingliz maqollari ham lingvistik, ham madaniy vosita sifatida muloqotni shakllantirish, madaniy o‘ziga xoslikni saqlash va til va jamiyatning dinamik tabiatini aks ettirishda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. cyberleninka.ru
2. 2. Honeck, R. A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom. - USA.: Lawrence Erlbaum, 1997. - 277p
3. 3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. - 303b.
4. 4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs-Maqollar- Пословицы. - T.: Mehnat, -2000. -398 b.
5. 5. Marvin, D.E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G.P Putnam Sons, 1922. -103 p